

AMIR TEMUR NOMIDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI AKADEMIYASI BAKALAVRIATIGA NOMZODLARNI SARALAB OLISH VA QABUL QILISH TEST SINOVLARIDA FRANSUZ TILI FANIDAN FOYDALANILADIGAN TEST VARIANTI TAFSILOTI

1. Test variantining qo‘llanish maqsadi

Fransuz tili fanidan test topshiriqlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi bakalavriatiga nomzodlarni saralab olish va qabul qilish test sinovlarida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘limning davlat ta‘lim standartlari hamda chet tili (ingliz, nemis, fransuz tillari) faniga oid umumta‘lim o‘quv dasturlarida o‘zlashtirilishi belgilangan bilim, ko‘nikma va malaka talablari asosida abituriyentlarning tayyorgarlik darajasini aniqlab berishga mo‘ljallangan.

2. Test variantini shakllantirishda asos bo‘luvchi me‘yoriy hujjatlar:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatiga kirish sinovlarini o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 16-noyabrdagi PQ-3389-son qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2018-yil 3-apreldagi 261-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish uchun kirish test sinovlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi” Nizom;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Amir Temur nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasiga bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha kunduzgi ta‘lim shaklida o‘qishga nomzodlarni saralab olish va qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2021-yil 27-apreldagi 241-qarori;
- Fransuz tili faniga oid amaldagi davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturlari.

3. Fransuz tili fanidan shakllantiriladigan test variantining tarkibi

Fransuz tili fanidan **mutaxassislik** fani sifatida shakllantiriladigan test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi bilan birga mantiqiy fikrlashi va ta‘limning keyingi bosqichiga tayyorgarligini baholaydigan, fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo‘naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi.

Fransuz tili fani bo‘yicha test topshiriqlarining soni 30 ta yopiq test topshirig‘idan iborat bo‘lib, maksimal ball 93 ballni (har bir to‘g‘ri javob uchun 3,1 ball) tashkil etadi.

Test topshiriqlarini bajarish uchun (javoblar varaqasini to‘ldirish bilan birga) 30 ta test topshirig‘iga 1 soat vaqt belgilanadi.

4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi

Kodi	Fan mazmuni tarkibi
	1. Grammatika
1.1	Otlarda son va rod. Artikl va uning turlari: aniq, noaniq, qism bildiruvchi va tutash artikllar. Artikllarning tushib qolishi. Predloglar.
1.2	Sifat: egalik va ko'rsatish sifatlari. Sifat va ravishning oddiy, qiyosiy va orttirma darajalari.
1.3	Olmosh: egalik va ko'rsatish olmoshlari. Urg'uli va urg'usiz olmoshlar. Vositali va vositasiz to'ldiruvchi o'rnida ishlatiladigan olmoshlar. Nisbiy olmoshlar. "En" va "Y" olmoshlari.
1.4	Fe'l: uning aktiv va passiv hamda shaxssiz shakllari (infinitif, participe passé, gérondif). "Indicatif" mayli zamonlari (Présent, Futur simple, Passé composé, Futur immédiat va Passé immédiat, Imparfait). "Impératif" mayli. Conditionnel va Subjonctif mayli zamonlari: conditionnel présent va subjonctif présent.
1.5	Qo'shma gaplarda zamonlar moslashuvi. "Si" bog'lovchisi yordamida bog'langan shart ergash gaplarda zamonlar moslashuvi. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.
1.6	So'roq (so'roq sifati, olmoshi va ravishlari) va inkor gaplar.
2. Leksika	
2.1	O'rganilgan mavzular bilan bog'liq leksik birliklar, so'z yasash elementlari, leksik birliklarning ko'p ma'noliligi, leksik va mantiqiy moslashuv; sinonim va antonimlar; turg'un birikmalar.
3. O'qish	
3.1	Gazeta va jurnallardan olingan xabarlar, e'lonlar; sodda ilmiy va ilmiy-ommabop matnlar; internet tarmog'i va boshqa manbalardan olingan faktlarga asoslangan matnlar; qisqa rasmiy hujjatlar; badiiy asarlardan olingan parchalar.

5. Fransuz tili faniga oid kognitiv ko'nikma darajasi

1.	quyi kognitiv ko'nikma darajasi	<ul style="list-style-type: none"> – til birliklari (qo'shimcha, so'z va gaplar)ning leksik-grammatik xususiyatlarini bilish va tushunish; – grammatikaga oid asosiy qoida, tushuncha va atamalarni bilish va tushunish; – grammatik qoidalar o'rtasidagi bog'liqlikni tushungan holda ularni gapda to'g'ri qo'llash.
2.	yuqori kognitiv ko'nikma darajasi	<ul style="list-style-type: none"> – gap tarkibida ma'nosini taxmin qila olish mumkin bo'lgan yangi so'zlarni to'g'ri qo'llay olish; – so'z turkumlarining grammatik xususiyatlarini tahlil qila olish; – matn mazmunini va uning asosiy g'oyasini tushungan holda ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlik, o'xshashlik va farqlarni, voqea va hodisa sabablarini tahlil qilish; – rasmda tasvirlangan voqea-hodisaning gap mazmuni bilan bog'liqligini tahlil qilish; – tahlil jarayonida berilgan ma'lumotlar asosida xulosa chiqarish.

6. Fransuz tili fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar

Fransuz tili faniga oid test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi va ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta'lim standartlari, chet tili (ingliz, nemis, fransuz tillari) faniga oid umumta'lim o'quv dasturlarida o'zlashtirilishi belgilab qo'yilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida olinadi.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar			Kodi	
Fransuz tili	Nutqiy kompetensiya	O'qish	Gazeta va jurnallardan olingan xabar va e'lonlarni to'liq tushuna olish.	1.1.1	
			Sodda ilmiy va ilmiy-ommabop matndagi tegishli ma'lumotlarni topish hamda qisqa rasmiy hujjat yoki badiiy asardan olingan parchadagi asosiy fikrni tushuna olish.	1.1.2	
			Internet tarmog'i va boshqa manbalardan olingan faktlarga asoslangan matndagi fikrlarni tushuna olish.	1.1.3	
	Lingvistik kompetensiya	Grammatik kompetensiya	Otning grammatik kategoriyalari (mujskoy va jenskiy rodlar, birlik va ko'plik sonlar)ni; artikllar (aniq, noaniq, tutash va qism bildiruvchi) va ularning ishlatilishini, ot oldida artiklning tushib qolish holatlarini bilish; predloglar, iboralar va birikmalar tarkibiga kiradigan predloglarni, bog'lovchi so'z va birikmalarni bilish.	2.1.1	
			Egalik, ko'rsatish, so'roq sifatlari va ularning ishlatilishini; sifatlarning rod va son kategoriyalari hamda ularning otlar bilan moslashuvini bilish, sifat va ravish darajalari, ularning yasalishi va qo'llanilishini bilish.	2.1.2	
			Kishilik, egalik, ko'rsatish, so'roq, nisbiy, gumon va urg'uli olmoshlarni bilish.	2.1.3	
			So'roq gap: ohang yordamida, so'roq so'zlar yordamida, oddiy va murakkab inversiya orqali so'roq gaplar yasalishini bilish.	2.1.4	
			Fe'l zamon (Présent, Futur simple, Passé composé, Futur et Passé immédiat, Imparfait, Plus-que-parfait) va fe'l mayllarini (Indicatif, Impératif, Conditionnel, Subjonctif) bilish.	2.1.5	
			Fe'llarning aktiv, passiv va shaxssiz formalari (Infinitif, Participe passé, Gérondif) ni bilish va tushunish.	2.1.6	
			Qo'shma gaplarda zamonlar moslashuvini bilish.	2.1.7	
			Darak, buyruq va so'roq gaplarni o'zlashtirma gapga aylantira olish.	2.1.8	
			Gap tarkibida yo'l qo'yilgan grammatik xatolikni aniqlay olish.	2.1.9	
			Leksik kompetensiya	So'z yasalishi va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar haqida tushunchaga ega bo'lish, keng tarqalgan, kundalik va kasbiy vaziyatlarda ishlatiladigan so'z va so'z birikmalarini bilish.	2.2.1
				Tili o'rganilayotgan mamlakatga xos bo'lgan replika-klishelarni qo'llashni bilish, ko'p ma'nolilik, sinonimlar va antonimlar, kasb-hunarga oid turg'un birikmalarni bilish.	2.2.2
				Rasm yoki chizma yordamida ifodalangan fikrni tushunish; o'z sohalarida keng tarqalgan xalqaro va turdosh so'zlarni tanish.	2.2.3

***Izoh:** Mazkur hujjatga vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli qaror va buyruqlariga asosan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.